

**YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA ADVOKATURA FAOLIYATINING
HUQUQIY KAFOLATLARI**

Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi mahsus fan o'qituvchisi, 3-darajali yurist, magistr.

e-pochta:shokhidaxonjiyanova@gmail.com

tel:91 327 45 05.

Akbarova Zilola Xayrullo qizi

Sud-huquqiy faoliyati, 23-22-guruh o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8411779>

Annotatsiya. Mazkur maqolada advokatlik faoliyatining huquqiy maqomi ilmiy-nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, bu borada O'zbekiston Respublikasining tutgan pozitsiyasi to'liq yoritib berilgan. Shuningdek yangilangan Konstitutsiyada aynan advokatlar faoliyati bilan bo'g'liq normalarning tahlili, advokatlik institutining bugungi kundagi ahamiyati, O'zbekiston Respublikasida advokaturaning bugungi kundagi holati qisqacha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: advokatlik tuzilmasi, advokatura, Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati. Advokat, yuridik yordam.

**LEGAL GUARANTEES OF THE ACTIVITIES OF THE LAWYER IN THE
UPDATED CONSTITUTION**

Abstract. In this article, the legal status of the legal profession of a lawyer is analyzed scientifically-theoretically and legally, and the position of the Republic of Uzbekistan in this regard is fully covered. Also, in the updated constitution, it is the analysis of the rules of articulation with the activities of lawyers, the importance of the bar Institute today, the state of the lawyer in the Republic of Uzbekistan today that is briefly covered.

Keywords: advocacy structure, advocacy, Constitution, civil society. Lawyer, Legal Assistance.

**ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АДВОКАТУРЫ В
ОБНОВЛЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ**

Аннотация. В данной статье проведен научно-теоретический и правовой анализ правового статуса адвокатской деятельности, в полной мере освещена позиция Республики Узбекистан в этом вопросе. Также в обновленной Конституции вкратце освещены анализ норм, связанных именно с адвокатской деятельностью, значение института адвокатуры на сегодняшний день, современное состояние адвокатуры в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: структура адвокатуры, адвокатура, Конституция, гражданское общество, Адвокат, юридическая помощь.

Advokatura - O'zbekiston Respublikasidagi fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri, huquqiy davlat tizimining elementi bo'lib, usiz jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash ilojsizdir.

Yangilangan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida advokatura institutiga konstitutsiyaviy maqom berildi. Ya'ni birinchi bor mamlakat Konstitutsiyasiga advokaturaga bag'ishlangan alohida bob kiritilib, advokatlar faoliyati mustaqilligining konstitutsiyaviy kafolatlari kuchaytirildi. Xususan Konstitutsiyaning XXIV bobi aynan "Advokatura" faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, u 141-142 -moddalarni o'z ichiga oladi.

"Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi.

Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini-o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi."

Aynan ushbu moddani tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatining asosiy belgilari to'liq va tushunarli qilib bayon etilgan. Shuningdek advokat faoliyati davomida faqat qonunga bo'ysunishi, jamiyatda adolat va qonuniylikni ta'minlashda o'z hissasini qo'shishi belgilab berilgan. Uning faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi qonun va qonun osti hujjatlari bilan kafolatlab qo'yilgan.

Konstitutsiyada advokaturaning institutsional ahamiyati va tashkiliy mustaqilligi qat'iyligidan tashqari fuqarolarga malakali yuridik yordam manbai bo'lgan advokatning faoliyatida belgilangan kafolatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 141-142- moddasi bilan qator yangi qoidalar nazarda tutildiki, ularning har biri advokatning huquqiy va protsessual maqomi jiddiy mustahkamlanganidan dalolat beradi.

"Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi". (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 142-1-modda) Mazkur qoidaning ahamiyati nimada? Shubhasiz, bunday norma advokatlar faoliyati umumiy holatiga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, aytish kerakki, advokatning guvohlik immuniteti va uning faoliyatiga aralashish taqiqi advokatlik faoliyatiga oid qonunlar va protsessual qonunchilikda ham belgilangan. Lekin mazkur qoidalarning konstitutsiyaviy darajada o'rnatilishi ularning real ishlash imkonini oshiradi, chunki bu yerda gap konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi haqida bormoqda va bu qat'iy qoidalar jinoyat ishi yurituviga mas'ul bo'lgan shaxslar tergovchi, prokuror

va sud zimmasiga yuklatilib, ular advokatning mazkur kafolatlarini ta'minlab berishga majbur ekanliklarini anglatadi! Nima uchun aynan ana shu sub'yektlarga ushbu majburiyatning yuklatilishi muhim? Chunki sud-tergov amaliyoti shuni ko'rsatadiki, advokatlarning kasbiy faoliyatiga aralashish, ularning himoya pozitsiyasini olib borishida turli bevosita va bilvosita bosim holatlari aynan jinoyat ishi yurituvchi jarayonida ko'proq kuzatiladi.

Konstitutsiyaviy kafolat sharoitida esa advokat bunday xavflardan himoyalanaadi, o'z vakolatlari doirasida dadil harakatlanadi, har qanday tazyiq va bosimlardan xoli bo'ladi.

Mustaqil bo'lgan, o'z himoya yo'nalishini mustahkam va barqaror olib boradigan advokat tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam darajasi ham, albatta, yuqori bo'lishi tayin.

“Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan to'sqinliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi.” Bu kafolat borasida gapiradigan bo'lsak, aytish muhimki, bu kafolatga bo'lgan ehtiyoj jinoyat protsessida advokat ishtiroki eng boshlang'ich nuqtasining o'zida – shaxs jinoyat sodir etishda gumonlanib ushlangan zahotiyoy yuzaga keladi. Ya'ni shaxsning harakatlanish erkinligi cheklanishi bilan darhol unga advokat ta'minlanishi shart hisoblanadi. Shuningdek, shaxs birinchi so'roq o'tkazilishidan avval himoyachi bilan xoli uchrashishi qonunan kafolatlangan. Lekin shu bilan birgalikda ta'kidlash kerakki, tergov amaliyoti jinoyat-protsessual qonunida belgilangan mazkur huquqlarni ta'minlashda qator muammolar borligidan dalolat bermoqda. Ko'plab advokatlarning asosiy e'tirozlaridan biri bu – tergov organlari tomonidan advokat va uning himoyasi ostidagi shaxsni ayblov yuzasidan birlamchi pozitsiyani shakllantirib olishga to'sqinlik qiluvchi turli vaziyatlarning yaratilishidir. Masalan, tergov hibsonasi ichki tartib qoidalari vaji bilan uchrashuvning xoli bo'lishiga imkon bermaslik, turli bahonalar bilan uchrashuvlar vaqtini ortga surish yoki belgilangan uchrashuv joyini tez fursatda o'zgartirish, advokatlar xonasi yetishmasligi va boshqa advokatlar ham o'z himoyasi ostidagilar bilan uchrashishi kerakligi vajini aytib, uchrashuv vaqtini chegaralashga urinishlar va boshqalar. Bunday to'siqlar oqibatida advokat o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan birlamchi va eng muhim bo'lgan muloqotni qila olmay, mustahkam himoya pozitsiyasini qo'ldan boy beradi, hibsdan saqlanayotgan shaxs esa jinoiy ta'qibning og'ir ruhiy bosimi ostida iqrorlik ko'rsatmalarini berish ehtimoli yanada ortadi. Aynan ana shunday vaziyatlarga chek qo'yish maqsadida ham *“advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan to'sqinliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi”* degan qat'iy konstitutsiyaviy qoida o'rnatilganligi nihoyatda muhimdir.

“Advokat va uning kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi. Advokatning kasbiy huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan muhofaza qilinadi”. Mazkur kafolatning mohiyati nimadan iborat? Bunday qoida orqali davlat advokatlar xavfsizligiga tahdid bo'lgan holatlarda

ularning himoyasini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi, ularning o'z kasbiy vazifalarini bajarishlari uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanishlariga shart-sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, advokat kasbiy vakolatlari doirasida dalillar to'plashi va ularni taqdim etishi jarayonining davlat tomonidan himoyalangani advokatning erkin va mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Bu borada advokatning sha'ni va qadr-qimmati qonun bilan muhofazalanishi alohida e'tirof etilgani nafaqat himoyasi ostidagi shaxsni, balki advokatning o'zini ham turli bosim va tahdidlardan, noqonuniy harakatlar ta'siridan himoya qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustaqil advokatura samarali odil sudlovni ta'minlashning ajralmas shartidir. Zero sud protsessida taraflarning chinakam tortishuviga advokat va prokuror o'rtasida protsessual imkoniyatlar tengligi, sog'lom bahs va kuchli pozitsiyalar muzokarasi ta'minlanishi muhitidagina erishiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr, -T: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023 y
2. "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 09.08.2023 y O'RQ-862-son
3. "Advokatura" darslik , TDYU mualliflar jamoasi. -T;.-2019 y, 11-b
4. Kun.uz rasmiy kanali

MODERN SCIENCE
& RESEARCH